

QASHQADARYO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH: HOZIRGI HOLAT VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLAR

Uzoqov Jamshid Norboyevich

*Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti, i.f.f.d. (PhD)*

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-6420-9076>

Zokirov Ulug‘bek Inom o‘g‘li

*Axborot texnologiyalari va
menejment universiteti assistenti*

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-5357-3270>

Annotasiya: Maqolada Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmi salohiyatini oshirish, sohani rivojlantirish borasida dunyoning ko‘plab davlatlari tajribasini o‘rganish, amaliyotda tadbiq etish hamda dunyoning rivojlangan davlatlari tomonidan sohada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha bir qator mulohaza, fikr va tavsiyalar keltirilgan.

Shuningdek, maqolada Qashqadaryo viloyatining ziyoratgohlari bilan bog‘liq arxitektura yodgorliklari holati, ularning soni, tarixi, bugungi kunda mazkur ziyoratgohlarning ziyorat turizmi sohasini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ushbu ob‘yektlarga halqimizning va xorijiy turistlarning tashrifini oshirish uchun mintaqada ziyorat turizm sohasini rivojlantirish istiqbolida halqaro hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Butun jahon turizm tashkiloti, mintaq, mintaq turizmi, ziyorat turizmi, turistik xizmatlar, ilmiy tadqiqot, turistik ob‘yektlar, madaniy meros, turizm infratuzilmasi.

Kirish. O‘zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish jarayonida uning istiqbolli shakli sifatidagi ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Butunjahon

turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi”ning 25-sessiyasidagi nutqida: Dunyo turizm industriyasining e’tiborga molik yirik tadbiri – Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasining Samarqandda o’tkazilishi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun katta tarixiy voqeadir.

Tashkilotning yubiley yig’ilishi “Buyuk ipak yo’li”ning durdonasi, O‘zbekistonning yirik sayyohlik maskani bo‘lgan ushbu qadimiy Samarqand shahrida o’tkazilayotgani chuqur ramziy ma’noga ega, jahon sivilizasiyalari chorrahasida joylashgan bu betakror shahar asrlar mobaynida Sharq va G‘arbni o‘zaro bog‘laydigan, savdo, ilm-fan va madaniyatning chinakam markazi bo‘lib kelgan, shuningdek, mashhur Rimga tengdosh bo‘lgan ushbu boqiy zamin ulkan saltanatlar poytaxti, ulug‘ alloma va mutafakkirlar, aziz avliyo zotlar kamol topgan yurt sifatida bizga hamisha g‘urur bag‘ishlaydi.

“Er yuzining sayqali” deya shuhrat qozongan, Sharqning ikki buyuk uyg‘onish davri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Samarqand bugungi kunda jahonning zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylanib borayotganligini” ta’kidlab, “Ziyorat turizmi” dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko‘proqqa oshirilishi hamda ana shu ezgu maqsadda tabarruk ziyorat maskanlarining geografiyasi kengaytirilib, ularning yagona xaritasi yaratilishini maqsad qilinganligi hamda tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va aloqalarimizni har tomonlama chuqurlashtirish uchun quyidagi takliflarni bildirdilar¹:

- global turizmning eng dolzarb muammosi – bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta’minlash;
- iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda “yashil” turizmni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish;

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. <https://president.uz/lists/view/6763> [16.10.2023].

- imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish va inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida biz tashkilotimiz doirasida 2025 yilni “Butun jahon inklyuziv turizm yili” deb e’lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish;
- Butunjahon turizm tashkiloti huzurida sayyohlik bo’yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish;
- Samarqandda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, dunyoda o’xshashi yo’q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi kelgusi o’quv yilidan boshlab O’zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi va davlatlaringiz vakillarini bu dasturda faol ishtirok etishga chaqiradi.
- “Ipak yo’li” brendini rivojlantirishga qo’shgan hissasi uchun tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta’sis etish;

Ushbu strategik vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun mamlakatimizda mavjud bo’lgan boy ziyorat turistik salohiyatidan xalq manfaatlari yo’lida samarali foydalanish va muqaddas qadamjolar tomon ziyoratchilar oqimini keskin ko’paytirish uchun ziyorat turizmini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini izlash va amalda qo’llash dolzarb masala hisoblanadi. Ziyorat turizm bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida o’z o’rniga ega bo’lib borayotgan tarmoqlardan biridir. Mamlakatimizning qaysi shahriga yoki diqqatga sazovar joylariga borsangiz albatta turistlarga duch kelasiz. Xarakterli jihati ularning aksariyat qismi xorijiy turistlarga to’g’ri keladi. Ziyorat turizm iqtisodiy jarayonlarning keng qamrovli sohasiga aylanmoqda.

Keyingi yillarda turizmning ziyorat turizmi, tog’ turizmi, gastronomik turizm, madaniy-ma’rifiy turizm, ekologik turizm, ishbilarmonlik turizmi, geoturizm kabi turlari sezilarli darajada rivoj topmoqda. Qashqadaryo viloyatida islom dunyosida tan olingan allomalarning maqbaralari, tabarruk qadamjolari ko’p. Qashqadaryo mintaqasida joylashgan turizm ob’yektlari, muqaddas qadamjolar bugungi kunda turistlar e’tiborini

tortmoqda. Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan viloyatimizda ziyorat turizmi yo'nalishida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ziyorat turizmi – diniy turizmning bir turi bo'lib, turli dinlar vakillarining ziyorat maqsadlarida qilgan sayohatlari yig'indisi bo'lib, ziyoratni odamlarning muqaddas joylarga sajda qilishlaridir.

“Ziyorat” – (arabcha زيارة ziyara) so'zidan olingan bo'lib, “tomosha qilish”, “ko'rishga borish (kelish)” ma'nolarni bildiradi. Musulmonlarda “ziyora”- bu payg'ambarlar bilan bog'liq, diniy muqaddas joylarni ziyorat qilishdir.

Keyingi yillarda turizm sohasi rivojlanishi bilan bir qatorda aholi bandlik darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning alohida mexanizmlaridan tashqari mintaqaviy maqsadli dasturlar ishlab chiqish, chegara hududlarni qo'llab-quvvatlash, maxsus iqtisodiy zonalar va klasterni tashkil etish mexanizmlaridan keng foydalaniladi. Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida mintaqani (turizmni) rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida strategiya va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish juda keng qo'llaniladi. O'zbekistonda turli mintaqalar darajasida, shuningdek, mintaqaviy turizm bozorini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda ma'lum tajriba bor. Jumladan, mintaqalarni (tarmoqlarni) yillik, o'rta muddatli rivojlantirish prognozlarini va davlat dasturlari ishlab chiqish keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, besh yilga mo'ljallangan Toshkent, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

O'tgan 2023 yilda Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizm salohiyatini oshirish maqsadida bir qator amaliy ishlar, jumladan, Qarshi Davlat universiteti huzuridagi “Abu Muin Nasafiy” ilmiy markazi hamkorligida Nasafiy olimlarning mamlakatimiz va xorijiy

davlatlarning kutubxonalari va arxiv fondlarida saqlanayotgan Nasaflik allomalar asarlarini elektron nusxalari to'plandi. Shuningdek, "Abu Muin Nasafiy" ziyoratgohi turistlar tashrif buyurishi uchun qulay shart sharoitlar yaratildi.

Viloyatda 2023-yilda "Ethno and modern fashion week", Turkiy xalqlar vakillari ishtirokida "Chanqovuz va sibizg'a", "Iroqi kashtachilik", "Zargarlik yarmarkasi" kabi festivallar tashkil etildi.

2024 yilga Kitob tumanida joylashgan "Xazrati Sulton" ziyoratgohiga olib boruvchi yo'lining 12 km qismini, Chiroqchi tuman hududida joylashgan "Langan ota" masjidiga olib boruvchi yo'lining 10 km qismini va Qamashi tumani hududida joylashgan "Langan ota" ziyoratgohiga olib boruvchi yo'lining 1 km qismini ta'mirlash rejalashtirilgan. Bundan tashqari Kitob tumanidagi "Xazrati Bashir" ziyoratgohiga olib boruvchi 3 km yo'l asfaltlashtirildi. Kitob tumani "Xo'ja Ilm koni" ziyoratgohi joylashgan maxalla hududidagi 2.8 km hajmdagi ichki yo'llar joriy ta'mirlandi.

"Samarqand-Kitob-Denov-Oltinsoy-Termiz" marshruti bo'ylab "Naqshbandiya pirlari" turizm halqasi ishlab chiqilmoqda va ushbu halqaga doimiy sayyohlarni jalb qilish uchun keng qamrovli targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda.

"Shahrisabz shahrining tarixiy maydoni", Kitob tumani "Hazrati Bashir", "Muhammad Vaxshivoriy", "Xo'ja Ilmkoni", Qarshi shahri "Xo'jai Jarroh" va jami 28 ta boshqa milliy ro'yxatdagi madaniy meros ob'yektlarida yoritish tizimlari ta'mirlandi.

Ushbu bajarilgan amaliy ishlar natijasida 2023-yil davomida Qashqadaryo viloyatiga 1 million nafar sayyohlar qadimiy qadamjolarini ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurishdi.

Quyidagi ma'lumotda Qashqadaryo viloyati tuman (shahar)laridagi turistlar oqimi yaxshi bo'lgan madaniy meros ob'yektlariga 2023 yilning yanvar-avgust oylarida tashrif buyurganlar hamda ko'rsatkichlarning 2022 yilning mos davriga nisbati keltirilgan.

Solishtirma tahlilda esa barcha ziyoratgohlarda o'tgan yilga nisbatan turistlar oqimi oshganligini ko'rishimiz mumkin.

T/P	Ziyoratgoh nomi	Sig'imi	Yil boshidan buyon tashrif buyurganlar soni	2022 yilga nisbatan (%)da
1	Hazrati Bashir ziyoratgohi	1500	267600	101,0
2	Xo'ja Imkanagiy ziyoratgohi	1000	24510	95,4
3	Mavlono Darvesh Muxammad Vaxshuvoriy ziyoratgohi	700	46745	104,6
4	Xo'ja Ne'matulloh maqbarasi	500	39150	103,1
5	Muborak al-Mervaziy ziyoratgohi	1000	12870	91,1
6	Langar ota ziyoratgohi	500	187012	103,3
7	Murodbaxsh ota ziyoratgohi	500	24501	101,3

8	Qusam ota ziyoratgohi	500	27840	97,6
9	Imom Muin-Nasafiy majmuasi	300	50450	97,4
10	Abu Ubayda ibnal- Jarrox ziyoratgohi	300	210200	93,0
11	Mirijanda ota ziyoratgohi	1000	29100	90,1
13	Dorut tilovat madrasasi	100	145000	90,9
14	Dorus saodat majmuasi	100	78000	95,7
15	Gumbazi Saidon maqbarasi	100	92500	96,8

Jadval ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo mintaqasida ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar va chora-tadbirlar amalga oshirilganligi sababli turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan yuqoridagi 15 ta ziyoratgohlar hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, viloyat bo'yicha jami 200 dan ortiq ziyorat maskanlari mavjud bo'lsada, mintaqaning boshqa ziyoratgohlariga turistlarni jalb qilishda ziyorat turizm ob'ektlarining ma'lumotlar bazasi yo'qligi, ziyorat turizmi infratuzilmasining past darajada ekanligi, mavjudlarining ham shaxs va ob'ekt sifatida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi va uzoq joylarda joylashganligi kabi muammolari mavjudligidan dalolat beradi.

Mintaqaning xorijiy turistlar bilan gavjum bo'lishining yana bir muhim jihati hududlarda oilaviy mehmon uylari sonini ko'paytirishdir. Shu orqali viloyatga tashrif buyuradigan xorijiy va mahalliy turistlarga qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Ayni paytda Qashqadaryoda 47 ta mehmonxona, 2433 ta mehmon uylari, 39 ta xostellar sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda. Ular bir kunda besh ming nafardan ortiq turistni qabul qilish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagi kabi bir necha Hukumat qarorlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish natijasida, mintaqada ziyorat turizm sohasini rivojlantirish, o'z navbatida Respublikada Qashqadaryo viloyatining mavqeini, qolaversa, dunyo miqyosida O'zbekiston Respublikasi mavqeini mustahkamlab, mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bajarilishiga, aholi daromadlari, bandligi va tadbirkorlik faoliyatlarining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyatining e'tiborga molik ziyorat maskanlaridan biri Qarshi tumanidagi **Abu Muin Nasafiy ziyoratgohi** haqida:²

“Abu Muin Nasafiy majmuasini boshkarish va obodonlashtirish direksiya”si, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 martdagi 117-son qarori hamda viloyat xokimining 2021 yil 26 martdagi 53-4-0-Q/21-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, tumanda butun Respublikadan hamda xorijiy turistlar tashrif buyuradigan ziyoratgoh ob'yekti bu – “**Abu Mu'in Nasafiy majmuasi**”dir.

Buning asosiy sababi alloma tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha ustozi imom Abu Mansur Moturidiy ta'limotini yanada rivojlantirib, uning butun Sharq mamlakatlariga tarqalishida beqiyos xizmat ko'rsatgan olim sanalishidir.

Majmuaning umumiy maydoni 21 ga. bo'lib, amalda foydalanilayotgan maydoni 4.2 ga. ni tashkil etadi. Abu Mu'in Nasafiy 1027 yil Nasaf shahrida tug'ilgan. Allomaning asarlarida islom dini mazmun-mohiyatini to'g'ri talqin qilish, o'rta asrlarda Movorounnahrda chuqur ildiz otgan turli tuman firqa va guruhlarining aqidaviy

² <https://nasafziyo.uz/> sayti

masalalardagi noto‘g‘ri qarashlarga asosli raddiyalar bergan olimdir. Bugungi kunda uning qo‘lyozma nusxalari Dubay, Bag‘dod, Qohira, Iroq, Pokiston va Iskandariya shaharlari kutubxonalarida saqlanmoqda. “Bahr ul-kalom fi ilm al-kalom” asari 1886 yil Bog‘dodda, 908 yilda Qohirada chop etilgan. Ayni paytda asrlar davomida unga bir qancha sharhlar bitilgan.

Bugungi kunda mo‘tabar qo‘lyozmalarida biri Misrning Iskandariya shahri kutubxonasida saqlanmoqda. U 1269 milodiy yilda Muhammad ibn Hasan ibn al-Husayn ismli hattor tomonidan Buxoroda ko‘chirilgan. Qohiradagi “Dor ul-qutub al-Misriya” va mashhur al-Azhar universiteti kutubxonalarida asarning yangi uch nusxasi mavjud. Arab tilini o‘rganish bo‘yicha Fransuz ilmiy instituti tadqiqotchilarining mazkur nusxalar asosida Damashq shahrida bu yirik asarni (ming sahifadan ortiq) 1990 va 1993 yillarga ikki jildli holda chop etildi. Alloma 1114 yili 87 yoshida vafot etgan va Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog‘idagi hozirgi ziyoratgoh hududidagi maqbaraga dafn etilgan.

“Abu-Muin Nasafiy” ziyoratgohida xitoy ipak qog‘ozida bitilgan qo‘lyozma “Qur’oni-Karim” kitobi mavjud. Bu “Qur’oni-Karim”ning bo‘yi 60 sm, eni 41 smni tashkil qiladi. Bu “Qur’oni-Karim” ga o‘z davrida usta Zarif degan kishi tomonidan balandligi 1 metr 60 sm bo‘lgan lavh yasalgan. Lavhda hijriy yil hisobi bilan 1266 yil (milodiy yil bo‘yicha 1851 yil) yozib qoldirilgan. Fors tilida bo‘lgan 12 qator she‘r lavhda o‘yib bitilgan.

Hozirgi kunda ushbu “Qur’oni-Karim” kitobi ziyoratgoh muzeyidagi eng noyob eksponatlardan biri hisoblanadi hamda xorijiy turistlar e‘tiborini alohida jalb etmoqda.

Mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlarni amalga oshirishimiz lozim:

- Ziyorat turizmi sohasi **birinchidan**, aholining bandligini ta‘minlaydigan, ularni dam oldiradigan, jismoniy va ruhiy davolaydigan, ma‘lum ma’noda malakasini va tajribasini oshirishga xizmat qiladigan sohaga aylanadi, **ikkinchidan**, tadbirkorga ham, turistik firmaga ham, ma‘lum mintaqaga ham, davlatga ham daromad keltiradigan

iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanadi. Shu jihatdan turizm (ziyorat turizmi) sohasini ijtimoiy-iqtisodiy soha deb aytish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- Ommaviy axborot vositalarida Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;
- Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasi telekanallari qatoriga turizmni targ‘ib etuvchi maxsus telekanal tashkil etish;
- Qashqadaryo viloyatidagi mahalliy aholi ziyorat qiladigan muqaddas joylar, avliyolar, ulug‘lar qabrlari va boshqa maskanlarni qayta xatlovdan o‘tkazish va ularning tarixini ilmiy o‘rganish;
- Ziyoratchilarni, asosan xorijiy turistlarni e‘tiborini yanada qozonish maqsadida, ziyorat ob‘yektlarida saqlanib qolgan, o‘sha davrlardagi asl arxeologik topilma (har qanday predmet)larni o‘z holicha turistlar e‘tiboriga tanishishlari uchun havola etish;
- Mintaqada xorijiy turistlar tashrif buyurmagan (asosan mahalliy aholi ziyorat qiladigan) ob‘yektlarda soha olimlari tomonidan ilmiy o‘rganishlar o‘tkazish;
- Ziyorat turizm infratuzilmasini yaxshilash;
- Ziyorat turizm xizmatlari sifatini oshirishda xorij tajribalarini o‘rganish va amaliyotga joriy qilish;
- Ziyoratgohlarni muxandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ulash;
- Marketing va reklama strategiyalari: Qashqadaryoni ziyorat turizmi markazi sifatida tanituvchi brend ishlab chiqish;
- Ijtimoiy tarmoqlar, televizion reklama va blogerlar orqali ziyorat joylarini targ‘ib qilish;
- Mahalliy va xalqaro miqyosda ziyorat joylari bilan bog‘liq tadbirlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi.[16.10.2023].
2. <https://nasafziyo.uz/>
3. <https://strategy.uz/>
4. A.Q.Dustova. Mintaqa va turizmni xorij davlatlarda rivojlantirish mexanizmlari. (Maqola). Buxoro davlat unversiteti
5. Jo‘raeva. S. O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o‘rni. (Monografiya)- Toshkent: “Davr matbuot savdo”.
6. Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta’sirini baholash usullarini takomillashtirish:. i.f.d.. dokt. dissertatsiya avtoref. – Tashkent, 2018;
7. Turaev B.X. Razvitie organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov upravleniya regionalnym turizmom: Avtoref... dokt. ekon. nauk. – T., 2011. – 52 s.;
8. Hamidov O.H. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss... avtoreferati. – Samarqand, 2017.-7 b.
9. Sharapov Sh. Qashqadaryo ziyoratgohlari. 1-kitob. “Voris-nashriyot”. Toshkent-2010 y.
10. Uzaqov, J. N., & Jumanazarov, K. S. (2024, August). MINTAQADA ZIYORAT TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 7, pp. 23-33).
11. Uzaqov, J. N. (2024). Mintaqa ziyorat turizm salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH, 1(3), 45-53.

12. Uzaqov, J. N. (2024). Mintaqada ziyorat turizm klasterini shakllantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari. *Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research*, 1(3), 54-63.
13. Ergashev, R., & Uzoqov, J. (2024). IMPORTANCE OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS OF KASHKADARYA REGION IN THE PERSPECTIVE OF DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 26, 111-115.
14. Uzokov, J. (2023). QASHQADARYO MINTAQASIDA ZIYORAT TURIZMNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA O‘RNI. *Innovatsion texnologiyalar*, 52(04).
15. Uzokov, J. GOVERNMENT REGULATION AND MANAGEMENT OF THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 101.
16. Norboyevich, U. J., & Jumaniyozovich, Q. S. (2025). HUDUDLARDA ASALARICHILIK TURIZIMI ORQALI TADBIRKORLIKNING YANGI YO‘NALISHINI TASHKIL ETISH VA ISH O‘RINLARINI YARATISH. *Modern education and development*, 17(2), 379-389.
17. Norboyevich, J. U. (2024). Mintaqada ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. *THE INNOVATION ECONOMY*, 2(1).
18. Uzaqov, J. N. (2024). PROSPECTS OF PILGRIMAGE TOURISM DEVELOPMENT IN KASHKADARYA REGION. *Confrencea*, 6(6), 139-148.
19. Khidirovich, E. R., & Norboevich, U. J. (2024). ЗИЁРАТ ТУРИЗМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ТУРИСТИК КЛАСТЕРЛАШ УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ. *Economics and Innovative Technologies*, 12(4), 134-140.
20. Узоқов, Ж. Н. (2024, May). ЗИЁРАТ ТУРИЗМНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ҲАМДА ТАРМОҚ СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ. In

CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 4, pp. 98-102).

21. Norboevich, U. J. (2024). THE DEVELOPMENT OF TOURISM IS WELCOMED IN KASHKADARYA REGION. ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF DEVELOPMENT ARE IMPORTANT. *World Economics and Finance Bulletin*, 32, 38-40.

22. Эргашев, Р., & Узоков, Ж. (2024). ЗНАЧЕНИЕ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАЗВИТИИ СФЕРЫ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 889-897.

23. O'G, Z. U. B. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA BIZNES JARAYONLARNI BOSHQARISHNING MARKETING STRATEGIYASI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 33(2), 116-120.

24. Baxtiyor, B., & Ulugbek, Z. (2024). *Raqamli moliyaviy texnologiyalarning boshqaruvdagi roli va uning O'zbekiston uchun ahamiyati. SYNAPSES: INSIGHTS ACROSS THE DISCIPLINES*, 1 (4), 79–85.

25. Muxitdinov, X. (2023). BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNI MODELLASHTIRISHNING MATEMATIK VA INSTRUMENTAL USULLARI. *THE INNOVATION ECONOMY*, 1(01), 152-161.

26. Inom o'g, Z. U. B. (2025). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *Modern education and development*, 17(2), 290-298.

27. Inom o'g, Z. U. B. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA BIZNES JARAYONLARNI BOSHQARISHNING MARKETING STRATEGIYASI. *Journal of new century innovations*, 48(1), 124-129.

28. Itolmasovich, R. A. (2024). Turizm sohasida malakali kadrlar qo 'nimsizligining holati va mavsumiylik muammosini hal etish yo 'llari borasida tavsiyalar. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 447-452.

29. Bakhtiyarovich, N. I. Existing Problems in the Use of Cashless Forms of Payment in Uzbekistan and Ways to Solve Them. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 4(3), 147-152.
30. Шукуров, У. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИДА САНОАТ КОМПЛЕКСИНИНГ ҲИССАСИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 256-262.